

**O‘ZBEK VA INGLIZ MULOQOT ETIKETINING NUTQIY AKTLARDAGI  
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI****Durdona Bultakova***Mirzo Ulugbek nomidagi Milliy universitet,**Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 2-kurs talabasi**O'zbek tilshunosligi kafedrasida professori, f.f.d., Muhabbat Qurbonova*

**Annotatsiya** *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz muloqot etiketining nutqiy akt guruhlarida namoyon bo‘lish xususiyatlari, umumiy va xususiy jihatlar tadqiq qilinadi. Deklarativ, kommissiv, ekspressiv, assertiv nutqiy aktlarning har ikki tildagi nazariy tahlili misollar bilan yoritiladi va muloqot etiketidagi ahamiyati ochib beriladi. O‘zbek va ingliz muloqot etiketida nutqiy aktlar ma’lum umumiy xususiyatlari bilan bir qatorda, har bir nutq akti uchun mos bo‘lgan ma’nomlar va ularning ma’noviy qirralari har ikki madaniyatlarda mutlaqo farqli vazifalarni bajarishi tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *muloqot, muloqot etiketi, nutqiy akt, illokutiv, perlokutiv, lokutiv bosqichlar, kommissivlar, deklarativlar, ekspressivlar.*

**LINGUOCULTURAL FEATURES OF UZBEK AND ENGLISH COMMUNICATION  
ETIQUETTE IN SPEECH ACTS**

**Annotation** *In this article, the features of Uzbek and English communication etiquette in speech act groups, general and specific aspects are studied. The theoretical analysis of declarative, commissive, expressive, assertive speech acts in both languages is illustrated with examples and their importance in communication etiquette is revealed. In Uzbek and English communication etiquette, in addition to certain common characteristics of speech acts, the meanings suitable for each speech act and their spiritual aspects are analyzed, which perform completely different tasks in both cultures.*

**Key words:** *communication, communication etiquette, speech act, illocutionary, perlocutionary, locutionary stages, commissives, declaratives, expressives.*

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО  
ЭТИКЕТА ОБЩЕНИЯ В РЕЧЕВЫХ ДЕЙСТВИЯХ**

**Аннотация** *В данной статье изучаются особенности узбекского и английского этикета общения в группах речевых актов, общие и специфические аспекты. Теоретический анализ повествовательных, комиссивных, экспрессивных, асертивных речевых актов в обоих языках иллюстрируется примерами и раскрывается их значение в этикете общения. В узбекском и английском этикете*

*общения, помимо некоторых общих характеристик речевых актов, анализируются подходящие для каждого речевого акта значения и их духовные аспекты, выполняющие в обеих культурах совершенно разные задачи.*

**Ключевые слова:** *общение, этикет общения, речевой акт, иллокутивный, перлокутивный, локутивные этапы, комиссивы, декларативы, экспрессивы.*

**Kirish.** Muloqot etiketi odamlarning jamiyatdagi samarali muloqot, shaxsiy va kasbiy o'sishi, do'stona munosabatlarni o'rnatishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nutqayi nazardan pragmatik-situativ vaziyatning maqsadi, vazifalari, namoyon bo'lish qoliplarini tahlil qilishimiz lozim. Pragmalingvistika fanining muhim o'rganish oybektlaridan biri nutqiy aktdir. O'zbek tilshunos olimlaridan biri M.Hakimov "Nutqiy akt nazariyasi" tadqiqotida nutqiy akt guruhlarining quyidagi umumiy ma'nolar asosida birlashishini ta'kidlaydi: "Nutqiy aktlar mazmunan rang-barangdir. Jumladan, ular xabar, darak, so'roq, tahdid, iltimos, va'da, minnatdorlik, qo'rqitish, buyruq, masxaralash, mensimaslik, erkalash kabi turli mazmuniy strukturalardan tashkil topadi. Nutqiy aktlar ifodasi bir jihatdan kontekstga aloqador, boshqa jihatiga ko'ra esa nutqiy muloqotga kirishuvchilarning sotsial maqomiga bog'liq holda yuzaga chiqadi"<sup>17</sup>

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Pragmalingvistika fanining muhim o'rganish oybektlaridan biri nutqiy aktdir. "Pragmatikaning XX asrning ikkinchi yarmidagi rivoji nutqiy akt nazariyasining to'liq ko'rinishdagi lingvofalsafiy ta'limot sifatida shakllanishi bilan bogliqdir. Nutqiy akt tushunchasi oldingi davrlarda ham V. Humboldt, Sh. Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin kabi olimlarning ta'limotlarida mavjud bo'lgan, ammo nutqiy akt nazariyasi to'liq bir ta'limot sifatida ingliz mantiqshunosi J.Ostin, amerikalik psixolog J.Syorl va boshqalarning ishlarida shakllandi<sup>18</sup>. Nutqiy akt nazariyasini ilk marotaba fanga olib kirgan olim Oksford universiteti tadqiqotchisi J.L. Ostindir. Olimning fikriga ko'ra, nutqiy akt - bu shunchaki nutqiy faoliyat jarayoni emas, shuningdek, natijasi hamdir. Nutqiy akt nazariyasining ilk asoschisi J.Ostin nutqiy akti 5 ta kategorial guruhga ajratgan holda tahlil qiladi: verdiktivlar ( hakamlarga oid nutqiy aktlar), ekzersitivlar ( xohish-istak bildiruvchi nutqiy aktlar), komissivlar ( va'daga oid nutqiy aktlar), bexabitivlar ( etiket, odob-axloqqa oid nutqiy aktlar), ekspozitivlar (dalillash, sabab va xabarni bildiruvchi nutqiy aktlar)<sup>19</sup>.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Nutqiy akt lisoniy va nolisoniy vositalar bilan ifodalanib, uch bosqichli faoliyatda namoyon bo'ladi: lokutiv, illokutiv, perllokutiv. Lokutiv akt – muloqot jarayonida ma'lum lisoniy mazmuni lisoniy vositalardan foydalanib talaffuz qilishimiz, ya'ni moddiylashtirish jarayonidir. Masalan, "Derazani yoping" gapida so'zlovchi ongida

<sup>17</sup> Hakimov.M. Nutqiy akt nazariyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. Farg'ona – 2020.

<sup>18</sup> Sh.Safarov.Pragmalingvistika., Toshkent.2008. 137-b

<sup>19</sup> J.Ostin "How to do things with word". Oxford.1962



mana shu mazmundagi fikrni yaratadi va lisoniy yo‘l bilan uni voqelantiradi. So‘zlovchi ushbu gapni ma‘lum maqsadda gapiradi, biz undan turli prepozitsiyalarni taxmin qilishimiz mumkin bo‘ladi: “ichkari sovuqligi uchun derazani yopishga undash”, ichkari isib ketgani, toza havo kirishi uchun ushbu harakatni bajarish”, “tashqarida chiroyli qor yog‘otganligi va so‘zlovchi uni uushlab ko‘rmoqchigi uchun”, “tashqari shovqinligi uchun” kabi maqsadlarda gapirgan bo‘lishi mumkin. Bulardan qaysi biri adresantning propozitsiyasi ekanligini faqat so‘zlovchi va tinglovchiga ma‘lum bo‘lgan nutqiy vaziyatdan bilishimiz mumkin bo‘ladi. Yuqorida tahlil qilingan so‘zlovchining nutqdan ko‘zlagan maqsadi, nutqiy vazifasi illokutsiyani tashkil etadi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, nutqiy aktning eng asosiy bosqichi illokutsiya hisoblanadi va ko‘pchilik olimlar nutqiy akti boshqa qilib illokutiv akt ham deyishadi. Tilshunos olim J.Syorl esa nutqiy aktlarni 5 guruhga ajratadi:

1. Assertivlar (fikrda berilayotgan axborotning rostligini ifodalaydi)
2. Direktivlar (buyruq, iltimos kabi maqsadlarni ko‘zlab, tinglovchini ma‘lum harakatni bajarishga undaydi)
3. Kommissivlar (va‘da berish).
4. Deklarativlar: (e‘lon mazmunidagi nutqiy aktlar).
5. Espressivlar (kishining hissiyotlarini yorqin ifodalaydigan tabriklash, maqtash, ta‘ziya bildirish kabilar).<sup>20</sup>

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Ingliz va o‘zbek tillarida muloqot etiketi nutqiy formulalari turli kommunikativ vaziyatlarda va turli kommunikativ kompetensiya bilan amalga oshishi mumkin bo‘lgan milliy o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Xususan, salomlashish kundalik muloqotda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatda kishilararo munosabatlarni o‘rnatish va o‘zaro tushunish imkoniyatini berish bilan bir qatorda murojaat qiluvchilarning qabul qiluvchi bilan muloqotga kirishish istagi borligini ifodalaydi. Ingliz lingvomadaniyatida salomlashish odatda juda qisqa bo‘lib, shaxsiy savollarni qamrab olmaydi: “*Hello*” (salom), “*Good morning*” (xayrli tong), “*Good afternoon*” (xayrli kun), “*Good night*” (xayrli kech), “*What’s up*” (nima gap), “*How is going on*” (ishlar qanday ketyapti), “*How are you*” (qandaysiz), “*Long time no see*” (anchadan beri ko‘rishmadik), “*What are you doing*” (nimalar bilan bandsiz). O‘zbek lingvomadaniyatida salomlashish alohida o‘rganilishni talab qiladi va o‘zining uzun va batafsilligi bilan o‘ziga xos o‘zbek milliylikini aks ettiradi. Ular qabul qiluvchining va uning oila a‘zolarining salomatligi, ularning faoliyati, kayfiyati, turmush tarzi kabilar bilan bog‘liq qator savollarni o‘zida qamrab oladi. O‘zbek xalqi *assalomu alaykum, qanaqasiz, yaxshi yuribsizmi, ishlaringiz yaxshimi, sog‘-salomatmisiz, eson-omon yuribsizmi, uy ichilar tinchmi, bola-chaqalar o‘ynab kulib yurishibdimi, nevaralariz katta bo‘lyaptimi, onangizni sog‘ayib ketdimi* kabi uzun va hissiyotli jumlar bilan salomlashuv-so‘rashuv nutqiy faoliyati amalga oshiriladi. Yuqoridagi qiyosdan ko‘rinib

<sup>20</sup> J.Seorl “Meaning, kommunikation and representation”. Okford university press. 1986

turibdiki, ingliz va o‘zbek tillarida nutqiy akt guruhlarining moddiylashuvida milliy-madaniy o‘ziga xosliklar namoyon bo‘ladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi nutqiy akt guruhlarini tahlil qilib, qator o‘xshashlik va tafovutlar ko‘zga tashlanadi.

**Deklarativ nutqiy aktlar.** Deklarativ nutqiy aktlar inson hayotida katta o‘zgarishga olib keladigan, hayotida tub burilishlar yasaydigan jarayonga sabab bo‘ladi. O‘zbek tilida deklarativ nutqiy aktlar ko‘pincha voqelikning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi: *“Sizlarni er-xotin deb e‘lon qilaman”, “Yig‘ilishni ochiq deb e‘lon qilaman”, “Sud hukmini e‘lon qilaman”, “2024-yil O‘zbekistonda “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili” deb e‘lon qilindi”*. Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida deklarativ nutqiy akt guruhlarini ko‘pincha *“e‘lon qilaman”* so‘zi bilan ifodalanadi.

Tilshunos olim Gilberst ingliz tilidagi deklarativlar esa mazmunan ijobiy va salbiy ko‘rinishlari mavjud ekanligi haqidagi ilmiy xulosani beradi. Ijobiy: *“What do you say, gorgeous? Marry me?!”* (Nima deysan sohibjamol? Menga turmushga chiqasanmi?), *“Would you like to get older with me by being my side till I die”* (“O‘lgunimcha yonimda bo‘lib, men bilan keksayishni hohlaysanmi”), *“Will you marry me”* (Menga turmushga chiqasanmi), *“Would you mind I take your surname and put it after my name”* (“Sizning familiyangizni olib, o‘z isminga qo‘ysam maylimi?”), *“I pronounce you as a husband and wife”* (“Sizlarni er-xotin deb e‘lon qilaman). Salbiy: *“David let out a frustrated sigh, “That’s why I’m calling. It’s about my business trip. We have to load our wedding....”* (Devid hafsalasi pir bo‘lgan holda xo‘rsinib dedi: “Shuning uchun qo‘ng‘iroq qilyapman. Bu mening xizmat sayohatim haqida. To‘yimizni kechiktirishga to‘g‘ri keladi....”)

Asarda keltirilgan parcha orziqib kutilayotgan marosimning kechikishi va ushbu xizmat safari asar qahramoni Devid hayoti uchun tahlikali ekani tinglovchi Syuzan ongida kuchli salbiy psixologik holatning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan har ikki ijobiy va salbiy holatdagi misollar, kuchli ta’sirga ega bo‘lgan nutqiy aktlar yani deklarativ nutqiy aktlar hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida deklarativlarning ijobiy va salbiy bo‘yoqdorlikka ega ekanligi haqida ilmiy fikrlar berilmagan bo‘lsada, yuqorida keltirilgan misollardan bu xususiyat ham o‘zbek tiliga oid ekanligini sezishimiz mumkin.

**Assertiv nutqiy aktlar.** So‘zlovchi o‘zi rost deb hisoblagan ma‘lumotni tinglovchiga uzatishidir. Bunda rostlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nutqiy akt insonning hissiy kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lib, unda so‘zlovchi qalbida turli holatlar sodir bo‘lishiga ishonch, tasdiq va aniq jarayonga nisbatan vujudga keladi. O‘zbek va ingliz tillarida bu nutqiy aktda katta farqlar ko‘zga tashlanmaydi. *O‘zbekistonning poytaxti Toshkent*. Ingliz tilidagi quyidagi misolda ushbu o‘xshashlikni ko‘rishimiz mumkin. *The Earth goes round the Sun (Yer quyosh atrofida aylanadi)*.

**Ekspressiv nutqiy aktlar.** Nutqiy akt so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi hissiy-psixologik jarayonlar (shikoyat qilish, kechirim so‘rash, xushomad (fatik birliklar), maqtov, xafa bo‘lish, tabriklash, hayratlanish, taziya izhor qilish, sevgi izhor qilish)ni aks ettiradi. Aynan ushbu guruh nutqiy aktlarda biz qiyoslayotgan madaniyati,



qadriyatlari, milliy mentalligi turlicha bo'lgan o'zbek va ingliz tillarida yorqin farqlar ko'zga tashlanadi va ma'lum o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Masalan, “*siz bugun judayam chiroylisiz*” (xushomad), “*Bu vaziyatdan afsusdaman*”, “*attang, ertaroq kelsaydim*” (xafa bo'lish, afuslanish), “*sizni o'qituvchilar bayrami bilan qutlayman*”, “*Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman*” (tabriklash), “*nahotki, men yutgan bo'lsam*”, (hayratlanish) “*Noqulay vaziyat uchun sizdan uzr so'rayman*” (uzr so'rash) kabilar o'zbek muloqot etiketida doimiy tarzda faol qo'llaniladigan nutqiy ifodalardir. Biroq o'zbek tilida shikoyat qilish, xafa bo'lish kabi mazmundagi nutqiy ifodalar tashqi nutqda oz miqdorda qo'llanilishi va bunday ifodalarning ko'proq ichki nutqqa xos ekanligi salbiy hissiyotlarni tashqariga chiqarish doim ham to'g'ri emas degan aqidaga borib taqaladi. Shuningdek, sevgi izhor qilishning ham o'zbek muloqot etiketida oshkora tarzda bildirilishi kam uchraydi. Xususan, A.Qodiriyning “O'tgan kunlar” asarida Kumushning Otabekka yozgan maktubida o'zbek qizining “qog'ozga o'rab” o'z hislarini bildirishi ham o'zbek xotin-qizlariga xos bo'lgan ibo-hayoning yorqin ifodasidir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'ziya bildirish mazmunidagi nutqiy akt ifodalari o'zbek xalqining hamdardlik izhor etishda judayam nozik, o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi: “*Alloh iymonini bersin*”, “*Oxirati obod bo'lsin*”, “*Sabri jamil ato etsin*”, “*U dunyosini chiroyli qilsin*”, “*Bolalariga yoshini bersin*”, “*Iymonini bersin*”, “*Alloh rahmatiga olgan bo'lsin*”, “*Savol-javobini oson qilsin*”, “*Xafa bo'lmang, yolg'on dunyoni tashlab chin dunyoga ketdi*”, “*Alloh rahmatiga olgan bo'lsin*”, “*Yotgan joylari jannatdan bo'lsin*”, “*U dunyosini obod qilsin*” kabi ta'ziya mazmunidagi nutqiy ifodalar o'zbek muloqot etiketining xalqimizning diniy-milliy, ruhiy-psixologik holatini yorqin ifodalaydi. Ingliz tilida ham “*Oh my God. I am sorry to hear that*”, “*Oh, I am so sorry*” (afsuslanish), “*Eh God, bless her soul*”, “*Alas, I share my sorrow in this sad day*”, “*Ouch, what a pity*”, “*Happy New Year*”, “*Your are beautiful today*”, “*You are my sweetie*”, “*I fall in love you so much*” kabi misollar ham ingliz tilining hissiy-ruhiy mazmunni ifodalovchi nutqiy ifodalarning ko'pligi va ularning undov so'zlar bilan yonma-yon tarzda faol qo'llanilishi ingliz tilining o'ziga xos rang-barangligini ifodalaydi. Shuningdek, “*My deepest sympathies are with you during this time*” (Shu vaqt ichida sizga chuqur hamdardlik bildiraman), “*Sending love and peace to you in this hard time*” (Ushbu qiyin paytda sizga sevgi va tinchlik yo'llayman), “*Extending my deepest sympathies for the loss of your [mother/father]*” onangiz/otangizdan ayrilganingiz uchun chuqur hamdardligimni bildiraman, “*I was deeply saddened to hear about your [mother's/father's] passing*” (Sizning [onangiz/otangiz] vafot etganini eshitib, qattiq qayg'uga tushdim)., “*My deepest sympathies to you and your family. God bless you and your family. My thoughts and prayers are with you in your time of grief*” (Sizga va oilangizga chuqur hamdardlik bildiraman. Xudo sizni va oilangizni asrasin. Mening o'ylarim va duolarim qayg'uli vaqtingizda siz bilan), “*I will always cherish the wonderful memories I have with your dad. He will be forever missed*” (Dadangiz bilan bo'lgan ajoyib xotiralarimni doim eslayman. Uni abadiy sog'inamiz) kabi ta'ziya bildirish ifodalari so'zlovchining bu holatdan xafa

ekanligini, vafot etgan insonning xotirasi abadiy yashashini ifodalasa, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan ta’ziya nutqiy ifodalarining katta qismi so‘zlovchining vaziyatga hissiy bahosi emas, vafot etgan insonning oxiragini va narigi dunyosi go‘zal bo‘lishi mazmunidagi hamdardlik ifodalaridagi tafovutlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tilshunos olim Gilbertning ingliz tilida expressiv nutqiy akt ochiq va yashirin tarzda namoyon bo‘lishi o‘zbek tilidagi ekpressiv ifodalar bilan umumiy jihatlarning mavjud ekanligidan dalolat beradi.

**Direktiv nutqiy aktlar.** So‘zlovchining tinglovchini ma’lum harakatga undovchi iltimos, buyruq, ogohlantirish, so‘roq mazmunidagi nutqiy maqsadlarini ifodalovchi aktlardir. Bunda so‘zlovchining illokutsiyasi bilan bir qatorda nutqiy-pragmatik vaziyatning perlokutsiyasi (tinglovchining natijaviy harakati) ham mavjud bo‘ladi. *“Derazani oching”, “Iltimos, barcha ishlarni o‘z vaqtida qiling”, “Yo‘lakning o‘ng tomonidan yuring”, “Bugun kechga nima ovqat yeymiz”, “Mana shu qog‘ozlarni taxlashga yordam berolmaysizmi”, “Arzon qilib berolmaysizmi”* kabi nutqiy ifodalarning aksariyati buyruq-iltimos kabi illokutiv maqsadni aks ettiradi va tinglovchini ma’lum harakatni bajarishga undaydi. O‘zbek tilida buyruq mazmunidagi ifodalarda fe‘lning bo‘lishsizlik shaklda, so‘roq gap tarzda ifodalanishi so‘zlovchining xushmuomalik bilan tinglovchidan biror harakatni bajarishga undash mazmuni borligini ifodalaydi: *“Bugun kutubxonaga kelolmaysizmi”, “Eshikni yopib yuborolmaysizmi”, “Mana bu e‘lonni universitet hududida tarqatolmaysizmi, iltimos”* kabilardan ko‘rinib turibdiki, bundan xalqimizga xos bo‘lgan noziklik, xushmuomalik kabi jihatlarni fe‘lning bo‘lishsizlik shakli bilan va so‘roq gap tarzida ifodalandi. Shuningdek, quyidagi misolga e‘tiborimizni qaratmog‘imiz lozim:

*“- Olinglar, shu bilan hali yana qachon ovqatlanamiz... Zulhumor unga yalt etib qaradi: - Nima, hozir jo‘naymizmi?”*<sup>21</sup>

Ushbu asarda domla birgina jumla orqali Zulhumorga ikki buyruq nutqiy aktini bajarishga undaydi. Bunda tinglovchidan tezroq ovqatlanishi lozimligi va bu yerdan tez orada jo‘nab ketishlari mazmunidagi ikki xil direktiv nutqiy akt illokutsiyasini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Biz qiyoslayotgan ingliz tili nuqtayi jihatidan qaraydigan bo‘lsak, ingliz tilshunosligida muloqotning situativ-pragmatik vaziyatiga qarab direktiv nutqiy ifodalarning qator darajalari ajratiladi:

**Kuchli:** *“go out”*(tashqariga chiq), *“out now”*(hoziroq tashqariga), *“boarding pass”*(bortga chiq)

**Kuchsiz:** *“you go out”* (sen tashqariga chiq), *“you are going out”* (sen tashqariga chiqyapsan), *“Go out, will you”* (tashqariga chiqyapsan, shunday emasmi), *“Go out please”* (iltimos, tashqariga chiq), *“I order you to go out”* (tashqariga chiqishingni buyuraman), *“I command you to go out”* (tashqariga chiqishingni buyuraman)

**An’anaviy bilvosita:** *“You must go out”* (sen tashqariga chiqishing kerak), *“Will you go out”* (tashqariga chiqasanmi), *“Can’t you just go out”* (tashqariga chiqmaysanmi),

<sup>21</sup> “Hammaning yashagisi keladi” qissalari <Hilil nashr> nashriyoti. Murod Mansur. 2015



“*May I have you just boarding pass*”(seni bortga chiqarsam maylimi), “*I am sure you would like to go outside*” (sen tashqariga chiqishni xohlashingga aminman), “*I wish you woul go out*”(seni tashqariga chiqishingni xohlayapman), “*Don’t you mind If you go out*” (tashqariga chiqishga qarshi emasmisan), “*Would you like to go out*”(tashqariga chiqishga nima deysan),

Noan’anaviy bilvosita: “*it is nice outside*” (tashqariga chiqish qanday yaxshi), “*I would go outside*” (tashqariga chiqmoqchiman (sen ham chiq degan ma’no bor))<sup>22</sup>

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va ingliz tillarida direktiv illokutsiyani ifodalovchi grammatik shakllar va vositalar, shuningdek ifodalanish tarzida kesin farqlar ko‘zga tashlanadi.

**Kommissiv nutqiy aktlar.** Syorl ta’rifiga ko‘ra, va’da berish va shunga o‘xshash majburiyatlarni ifodalaydi. Buyruq-iltimos mazmunidagi nutqiy akt jarayonidan kelib chiqqan, bajarilishi so‘ralgan yoki talab etilgan holatlarda tinglovchi tomonidan ushbu vazifani bajarishga va’da berish, rozilik bildirish yoki rad etish kabi jarayonlar kommissiv nutqiy akti orqali ifodalandi. Kommissiv nutqiy aktlarda va’da berish, qasamyod qilish, tahdid kabi mazmuniy ifodalarni ham bayon etishi mumkin. Xususan, tibbiyot va harbiy soha vakillari vatan oldida so‘zlaydigan qasamyod nutqi ham kommissivlarga yorqin misol bo‘ladi:

“...*Bemorni davolar ekanman (muolajadan keyin ham), uning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni sir sanab, hech qachon oshkor qilmayman...*”,

“*Men, (familiyasi, ismi, otasining ismi), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga, xalqimga, Prezidentimga sodiq bo‘lishga tantanali ravishda qasamyod qilaman*”. Shuningdek, rad etish mazmunidagi jumalarda “*hech qachon*”, “*aslo*”, “*ikki dunyoda ham*”, “*hech ham*” kabi so‘zlar bilan bir qatorda “*Tushingni suvga ayt*”, “*Tuya hammomni orzu qilibdi*”, “*Chuchvarani xom sanabsan*” “*Tuyani dumi yerga tekkanda*” kabi iboraviy birliklar bilan bayon etiladi. Shuningdek, “*Orzuga ayb yo‘q*” kabi ibora bilan ham kinoyaviy rad etish holatlari uchrab turadi. Tahdid mazmunidagi quyidagi nutqiy ifodalar kommissivlarni hosil qiladi:

*Menga davlat kerak emas, davlat kerak bo‘lsa, borar edim, - dedi.*

*Bu gap dodxoga tegib ketdi.*

- *Nima kerak?*<sup>23</sup>

Ingliz tilida kommissiv illokutiv ifodalar yuqorida sanalganidek, va’da, ogohlantirish, tahdid, rad etish ma’nolarini ifodalashi mumkin. *I will come back* (qaytman) va’da mazmunida bo‘lsa, “*I am telling you one more time – if you disobey I will take measures*” (Yana bir bor aytaman, agar itoat etmasangiz, chora ko‘raman)“ *tahdid mazmunida, “I solemnly declare upon my honour and conscience that I will speak truth ”* (“*O‘z sha’nim va vijdonim ustidan tantanali ravishda rost gapiraman*”) va’da, qasamyod

<sup>22</sup> Carlos de Pablos-Ortega. Directive speech acts in English. soprag 2020; 8(1): 125

<sup>23</sup> A.Qahhor. Dahshat hikoyasi.

mazmunidagi nutqiy aktlar o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Garchi hamma tillar nutqiy aktlarning ma'lum umumiy xususiyatlarini birlashtiradigan bo'lsada, har bir nutq akti uchun mos bo'lgan ma'nolar va ularning ma'noviy qirralari turli madaniyatlarda mutlaqo farqli vazifalarni bajarishi mumkin. O'zbek va ingliz muloqot etiketida nutqiy akt guruhlarini tahlil qilish, shu bilan birga nutqiy aktning lingvopragmatik xususiyatlarini bilish globallashtirayotgan dunyoda millatlararo muloqotda ijtimoiy muvozanatni saqlashda, muloqotning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatni kasb etadi. Muloqot qatnashchilari hisoblangan adresat va adresant o'rtasida sodir bo'layotgan nutqiy aktlarni tinglovchi ruhiyatiga qay darajada ta'sir etishiga qarab turli kategoriyalarda tahlil qilish orqali tilning pragmalingsvistik jihatlariga oid ko'plab yangi xulosalarni ochib berish imkoniga ega bo'lamiz. Bu bilimlar tilning madaniyatlararo muloqot jarayonida va qiyosiy tipologiya yo'nalishlarida muhim manbalar bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES):

1. Sh.Iskanadorova. O'zbek nutq odatlarining muloqot shakllari. Dok.diss. Avtoreferat. 1993. b.3.4.
2. Aleksandrov A. Пожмек друг другу руки. Новая строительная газета. 1992. b.16
3. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Dok.diss. Monografiya. 2001. b.16.
4. Atadjanova N. Muloqot jarayonida lisoniy mansublik tavsifi va turlari. Phd. Diss. Avtoreferat. Qo'qon. 2022. b. 24
5. Deyk T.A. Van. Язык.Познание.Коммуникация. - Moskva. Progress. 1989. - b.24.
6. Toirova G.I. O'zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik. Phd. Diss;. - Toshkent. 2017. b. 20.
7. Kalilina G.S. Turli tizimli tillarda nutqiy etiket. Dok.Diss;. - Moskva. 2021. b.87.
8. Safarov Sh. Pragmalingsvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.
9. J.Ostin "How to do things with word". Oxford. 1962
10. J.Seorl "Meaning, kommunikation and representation". Okford university press. 1986